

**MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIK YURT
OSOYISHTALIGI YO'LIDAGI MUHIM MEZON**

Salayeva Aziza Muhammadmurot qizi

*Termiz davlat pedagogika instituti,
Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq
ta'limi yo'nalishi 4-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqola tinchlik, osoyishtalikni ta'min etuvchi, turli xil millatlarning ahl, inoq yashashlari, shuningdek, mavjud har bir millat va elatlarning huquq va erkinliklarini hurmat qilish, tarixiy tarkib topgan qadriyatlarni saqlab qolish uchun eng muhim tayanch bo'lgan millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik, ularning huquqiy asoslaridan iborat.

Kalit so'zlar: Millat, millatlararo totuvlik, polietnik, monoetnik, diniy bag'rikenglik, tinchlik, do'stlik, hamkorlik, konstitutsiya, insonparvarlik

**МЕЖНАЦИОНАЛЬНАЯ ГАРМОНИЯ И РЕЛИГИОЗНАЯ
ТЕРПИМОСТЬ ЯВЛЯЮТСЯ ВАЖНЫМИ КРИТЕРИЯМИ НА ПУТИ К
СПОКОЙСТВИЮ В СТРАНЕ**

Аннотация: данная статья представляет собой правовую основу межнационального согласия и религиозной терпимости, обеспечивающих мир и спокойствие, уважение прав и свобод различных народов и народностей, сохранение исторически сложившихся ценностей.

Ключевые слова: нация, межэтническая гармония, полиэтничность, моноэтничность, религиозная терпимость, мир, дружба, сотрудничество, Конституция, гуманизм

KIRISH

Millatlararo totuvlik g'oyasi umumbashariy qadriyat bo'lib, turli xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaq va davlatlar milliy taraqqiyotini belgilaydi, shu joydagi tinchlik hamda barqarorlikning kafolati bo'lib xizmat qiladi. Har bir millat Yaratganning mo'jizasi bo'lib, o'z tili, dini, maslagi, qadriyatlari,



an'analariga egadir. Shu bois mafkura ma'naviy omillarning amal qilishi millatlararo totuvlikning muhim shartlaridan sanaladi. Davlatlar bu borada ko'p millatli ya'ni polietnik hamda bir millatli monoetnik tarkibga ega bo'lib, har biri o'ziga xosligi bilan bir-biridan farq qiladi. Har bir mamlakatda turli millat vakillarining mavjudligi azal-azaldan unga o'ziga xos tabiiy rang-baranglik baxsh etib kelgan. Muayyan hudud, davlatda turli millat vakillarining bahamjihat yashashi, hamkorlikda faoliyat yuritishi hozirgi davr uchun ham muhimdir. Yer yuzidagi 1600 dan ortiq millatdan bor-yo'g'i 200 ga yaqini o'z davlatchiligiga ega, xolos.

Butun dunyoda millatlararo totuvlikni ta'minlash uchun ularning manfaatlari, ruhiyati, intilishlarini muntazam o'rganib borish"siyosiy-ijtimoiy hayotda buni doimo e'tiborga olish zarur. Jahon tajribasi millatlararo totuvlikni ta'minlashga bir yoqlama, yuzaki yondashuv jiddiy muammolar keltirib chiqarishi mumkinligini ko'rsatadi. Xususan, davlatga o'z nomini bergan millat bilan o'sha joyda yashaydigan boshqa millat va elat vakllari orasidagi munosabatlar jiddiy e'tiborni talab etadi. Aks holda, jamiyat hayotidagi tinchlik va barqarorlik izdan chiqishi mumkin. Bu masala bizning mamlakatimiz uchun ham juda muhim. O'zbekiston kabi polietnik mamlakatda turli manfaatlarini uyg'unlashtirish, ular orasida totuvlikni ta'minlash taraqqiyotining hal qiluvchi omillaridan biri hisoblanadi. Zero, millatning istiqboli boshqa xalqlar va mamlakatlarning taraqqiyoti, butun jahondagi vaziyat va imkoniyatlar bilan ham bog'liqdir.

O'zbekiston hududida qadimdan ko'plab millat va elat vakillari bahamjihat istoqomat qilib kelgan. Ular orasida asrlar davomida milliy nizolar bo'lmagani xalqimizning azaliy bag'rikengligini ko'rsatadi.

Tarixning turli tahlikali davrlarida yurtimiz boshiga ko'plab qiyinchiliklar tushdi. XX asrning 30-yillardagi qatag'on siyosati va ikkinchi jahon urushi davrida o'z yurtlaridan majburan ko'chirilgan, badarg'a qilingan elat va millat vakillariga xalqimiz bag'rini ochdi, mehr ko'rsatdi. Bir nechta millat vakillariga, jumladan, koreyslar, nemislar, turklar, polyaklar, greklar, qrim-tatarlar bu bag'ri keng zaminda o'zlarining ikkinchi vatanini topdi. Ular o'zlarining yangi vatanlarida mahalliy aholi bilan emin-erkin turmush kechirdilar. O'zbekiston zaminida istiqomat qilayotgan



millat va elatlar soni muntazam ko'payib borgan. Jumladan, 1897-yilda yurtimiz hududlarida 70 ga yaqin millat va elat vakillari istiqomat qilgan bo'lsa, 1926-yilga kelib 91ta, 1959-yilda 113ta hamda 1989-yilga kelib 136 taga yetdi. Bugungi kunda O'zbekistonda 130 dan ziyod millat va elat vakillari istiqomat qilmoqda. Mamlakatimizda yashab kelayotgan millatlarni o'zaro hamjihatlik ruhida tarbiyalash maqsadi istiqolol mafkurasining asosiy maqsadlaridan biridir. U xalqimizga bo'lgan oliyjanoblik va insonparvarlik fazilatlariga asoslanadi. U do'stona munosabatlar ustun bo'lgan sharoitda ijtimoiy taraqqiyotning omili sifatida maydonga chiqadi. O'zbekiston ko'p millatlilik va ko'p dinlilik sharoitida millatlararo hurmat va totuvlik ruhi bilan doimo ajralib turgan. O'zbek zaminida istiqomat qiluvchi barcha millat va elat vakillari bir-birini tushunishga va totuvlikka intilayotgani taraqqiyotning o'ziga xos alomatidir.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 15-iyunda Toshkent shahrida bo'lib o'tgan "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofliğini asrash-davr talabi,, mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqida ta'kidlanganidek, "Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek ahl va inoq yashamoqda. Bu borada, hech shubhasiz, xalqimizga azaldan xos bo'lgan bag'rikenglik an'analari muhim rol o'ynamoqda"[1].

Yurtboshimiz tashabbuslari asosida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli demokratik islohotlar sur'ati va samarasi, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy jihatdan erkinlashtirish va jamiyat hayotining boshqa jabhalarida erishilgan salmoqli muvaffaqiyatlar tahlili mamlakatimiz xalqining O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha oliyjanob maqsadlar va g'oyat muhim vazifalarga erishishdan iborat yagona maqsad atrofida birlashganini ta'kidlash uchun barcha asoslarni beradi. Mamlakatimizda yashab kelayotgan millat va elat vakillari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari taqdim etgan teng huquq va imkoniyatlardan foydalanib, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida va ijtimoiy sohada, ilm-fan va madaniyat sohalarida samarali mehnat qilib, Vatanimizning gullab-yashnashiga va uning mustaqilligini



mustahkamlashga, respublikaning xalqaro maydondagi obro'-e'tibori va imijini oshirishga munosib hissa qo'shib kelmoqdalar. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Muqaddimasida o'zbekiston xalqi ushbu konstitutsiyani, fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta'minlash maqsadida, qabul qilgani alohida ta'kidlangan. Konstitutsiyamizning 4-moddasida O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tili ekani mustahkamlangani barobarida, O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari,urf-odat va an'analari hurmat qilinishini ta'minlashi,ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratib berishi qayd etilgan[2].

Bosh Qomusimizning 8-moddasida, O'zbekiston xalqini millatidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi [3] degan norma mustahkamlab qo'yilgan. Ana shu konstitutsiyaviy talabdan kelib chiqib, o'z taqdirini O'zbekiston bilan bog'lagan, mamlakatimiz farovonligi yo'lida halol va vijdonan mehnat qilayotgan, o'zlariga bog'liq bo'lmagan holatga ko'ra fuqaroligi bo'lmagan shaxsga aylanib qolgan fuqarolarning hayotiy muhim masalalarini hal etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Asosiy qism

Millatlararo totuvlik va hamjihatlik umumbashariy qadriyat sanaladi.U muayyan jamiyatda yashab,yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elat vakillari ahlligining ma'naviy asosini mustahkamlaydi, shu hududdagi tinchlik va barqarorlikning kafolati bo'lib xizmat qiladi.Millatlararo totuvlik-milliy mafkuramizning asosiy g'oyalaridan biridir.

Avvalo biz millat deganda nimani tushunamiz?

Millat uzoq davom etgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va etno-madaniy jarayonda, aniq hududiy doirada til va o'zlikni anglash birligi asosida shakllangan xalq etnik tarixining yuksak cho'qqisi, o'ziga xos milliy ong va mentalitet zaminida tarkib topgan birikish shakli. Millat umumiy iqtisodiy turmush, hudud, til birligi, madaniyat va ruhiyat uyg'unligidir.Millat bir tilda so'zlashuvchi oddiy jamoasi emas. Millat bu tarixiy, ma'naviy, ruhiy, insoniy, siyosiy, ijtimoiy birlikdir. Millat ichki va tashqi uyg'unlik, inoqlik, hamjihatlik muhitida yuksaladi. Millat o'z



atrofidagi boshqa millatlar bilan hamjihatlikda yuksalib o'z manfaatlarini o'zgalarning manfaatlari bilan muvofiqlashtirib boradi. Millat mavjud bo'lishi uchun til, hudud va ma'naviyat asosiy shart bo'lgani kabi milliy o'zlikni anglash ham asosiy zaruriy shart hisoblanadi. O'z-o'zini anglash bu xalqining, millatning o'tmish tarixiy taraqqiyot yo'lini, ota-bobolari, nasl-nasabi, avlodu-ajdodlarining kim bo'lganligi va ularning jahon ilm-fani va madaniyati taraqqiyotiga qo'shgan buyuk hissalarini bilib olishdir. Milliy o'zlikni anglash-millat yashayotgan Vatanning porloq istiqbolini ta'minlash uchun qanday imkoniyatlar va qulayliklarga ega ekanligini chuqur anglash yetish, ular bilan chemist faxrlanish, mavjud imkoniyatlarni yuzaga chiqarish, real voqelikka aylantirish uchun o'zini safarbar etish, barcha imkoniyatlar, kuch-g'ayratini ishga solish demakdir. O'zbek millatining bosib o'tgan tarixiy yo'li, jug'rofiy yashash sharoiti, quyosh kunlari, hosildor zamini, sersuv daryolari, shirin-shakar mevali bog'lari, qadimiy obidalari shu xalqining aqliy qobiliyatlarini va ruhiy quvvatining yuksakligidan dalolat beradi. Sotsiolog, professor M. Bekmurodovning ta'kidlashicha, o'zbeklardagi bag'rikenglik, jamoaviylikning ildizlari uzoq tarixiy taraqqiyot va turmush kechirish shart-sharoitlari bilan bog'liq. U shunday yozadi: "O'zbek xalqi asrlar mobaynida jamoa bo'lib istiqomat qilib kelgan va oilasi, el-elati, vatani, kasb-koriga sodiqlik asosiy tamal toshi vazifasini o'tagan"[4].

"O'zbek xalqi" tushunchasi mamlakatimizda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o'rtasidagi o'zaro hurmat, do'stlik, hamjihatlik uchun ma'naviy asos bo'lib xizmat qiladi.

Konstitutsiyamizning 19-moddasiga ko'ra "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar" [5] deya belgilangan. Bularning barchasi, o'z navbatida, aholi, ayniqsa, yoshlar ongida insonparvarlik qadriyatlarini, turli millat vakillari o'rtasida o'zaro hamjihatlikni yanada mustahkamlash, bu borada amalga oshirilayotgan ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishni taqozo etadi. E'tibor berilsa, konstitutsiyamizning ushbu moddasida milliy hayotga, fuqarolarning milliy his-



tuyg'ulariga daxldor muhim ahamiyatga ega bir qator tamoyillar belgilab qo'yilganiga ishonch hosil qilish mumkin.

Birinchidan, fuqarolarning milliy mansubligidan qat'iy nazar qonun oldida tengligini mustahkamlash,

Ikkinchidan, fuqarolarning diniy, e'tiqodiy farqlaridan qat'iy nazar, bir xil huquq va erkinliklarga ega ekanligi ta'kidlangan. Diniy qadriyatlar millat ma'naviyatining ajralmas qismi ekanini inobatga oladigan bo'lsak, mazkur qoidaning hayotiy-amaliy ahamiyati oydinlashadi.

Uchinchidan, fuqarolarning irqiy tengligi qayd etilgan. Irqchilikdan g'ayriinsoniy mafkura va amaliyotning tariximizda umuman kuzatilmaganini alohida qayd etish lozim.

Davlatimiz rahbarining 2017-yil 19-maydagi "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2019-yil 15-noyabrdagi "Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari qabul qilingani bu borada ayni muddao bo'ldi. Millatlararo totuvlikni ta'minlash O'zbekistonning zamonaviy davlat sifatida rivojlanish strategiyasining ajralmas qismi hisoblanadi. Xususan, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida millatlararo munosabatlar sohasida belgilangan vazifalar doirasida 40 dan ortiq me'yoriy-huquqiy hujjatlar – 2 ta Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 9 ta farmoni va 8 ta qarori, Vazirlar Mahkamasining 20 ta qarori, Oliy Majlisning 3 ta qarori qabul qilindi. Yana bir muhim jihat: Prezidentimiz 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga taqdim etgan Murojaatnomasida jamiyatda millatlararo totuvlik va bag'rikenglik muhitini mustahkamlashga qaratilgan ishlarni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish zarurligini qayd etib, har yili 30-iyul – Xalqaro do'stlik kuni sifatida keng nishonlanishi, shu bois mazkur sanani O'zbekistonda "Xalqlar do'stligi kuni" deb belgilashni taklif etgani yurtimizda istiqomat qiluvchi ko'p millatli fuqarolarimizni benihoya quvontirdi.



Endilikda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 10-fevraldagi Qonuniga asosan, mamlakatimizda 30-iyul – “Xalqlar do‘stligi kuni” etib belgilangan.

Harakatlar strategiyasining mantiqiy davomi bo‘lgan “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi”da ham aynan jamiyatda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratilgan. Jumladan, ushbu strategiyaning 74-maqsadi jamiyatda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenlikni muhitini mustahkamlash borasidagi tegishli vazifalarni o‘z ichiga olgan.

Hozirgi davrda milliy va diniy bag‘rikenglik dunyoda tinchlik va barqarorlikni asrash hamda diniy ekstremizm, fundamentalizm va aqidaparastlikka qarshi kurash, butun jahon hamjamiyatining hamkorligini nazarda tutadi. Ana shu tamoyilga asoslangan yurtimizda turli dinlarga mansub qadriyatlarni asrab-avaylash, barcha fuqarolar o‘z e‘tiqodini amalga oshirishi uchun zarur sharoitlarni yaratib berish, dinlar va millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlash, ular o‘rtasidagi qadimiy mushtarak an‘analarni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Diniy bag‘rikenglik ham dinlararo hamda har bir dunyoning ichidagi turli xil yo‘nalishlar va mazhablarning ezgu g‘oyalarini qadrlash, bir-birlarini hurmat qilish asosida amalga oshadi. Bu milliy g‘oya amal qiladigan ustuvor g‘oyalar sifatida Milliy bag‘rikenglik va dinlararo bag‘rikenglikka asoslanishi turli xalqlar va millatlar o‘rtasida o‘zaro hamjihatlik, totuvlikni ta‘minlash orqali erkin va farovon hayot qurishga, insonlarning tub hayotiy maqsadlari bilan mushtarakdir.

Tariximizning har qaysi davrida din doimo odamlarda yaxshi xislatlarni ko‘paytirib, yomonlaridan xolos bo‘lishga chorlagan, yuksak umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asarida dinning jamiyat hayotida tutgan o‘rni haqida, shunday deydi, – “Biz din bundan buyon ham aholini oliy ruhiy, axloqiy va ma‘naviy qadriyatlardan, tarixiy va madaniy merosdan bahramand qilish tarafdorimiz. Lekin, biz hech qachon diniy da‘vatlar hokimiyat uchun kurashga, siyosat, iqtisodiyot va qonunshunoslikka aralashish uchun bayroq bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaymiz. Chunki, bu holni



davlatimizning xavfsizligi, barqarorligi uchun jiddiy xavf-xatar deb hisoblaymiz”[6].

O‘zbekiston dunyoviylik va diniylik o‘rtasida andoza sifatida qo‘llash mumkin bo‘lgan yangi nisbatning shakllanishi natijasida dinlararo bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikning ta‘minlangani, qolaversa tabarruk zaminimizning azaldan umumjahon tamadduni markazlaridan biri bo‘lganligi hammaga ayon. O‘zbekistonda yangi demokratik fuqarolik jamiyati asoslarini yaratishga kirishilgan hozirgi davrda diniy bag‘rikenglik qanchalik muhim bo‘lsa, diniy bag‘rikenglik uchun milliy mafkura ham shunchalik muhimdir. Milliy mafkuraning yuksak g‘oyalari, o‘z navbatida dinning haqiqiy mohiyatini jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini anglash olishga yordam beradi. Diniy bag‘rikenglik g‘oyasini to‘g‘ri tushunishga yordam berib, barcha kishilarni e‘tiqodidan qat‘i nazar birlashtiradi. “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonunning 4-moddasida “vijdon erkinligi - bu fuqarolarning xohlagan dinga e‘tiqod qilish Yoki hech qaysi dinga e‘tiqod qilmaslik bo‘yicha kafolatlangan konstitutsiyaviy huquqidir” deb belgilab qo‘yilgan.[7] Ushbu qoidadan ham ayonki, yurtimizda vijdon erkinligi to‘la-to‘kis mustahkamlab qo‘yilgan, har bir millat vakili xohlagan diniga e‘tiqod qilishi, yoxud hech qaysi dinga e‘tiqod qilmaslik huquqiga ega.

Bugun O‘zbekiston diniy bag‘rikenglik (tolerantlik) va dinlararo murosa borasida nafaqat MDH mamlakatlari orasida, balki butun dunyoda namuna bo‘lmoqda.

Xulosa

Yurtimizda millatlararo totuvlik diniy bag‘rikenglik sohasida ijobiy va o‘zaro hurmatga asoslangan muhitni mustahkamlash borasida olib borilayotgan islohotlar natijasida millatlararo va dinlararo munosabatlarning yangi modeli yaratildi. Ushbu model turli millat va din vakillari o‘rtasidagi millatlararo va dinlararo muloqot, konstruktiv yondoshuv va barcha fuqarolarning qonun oldida tengligiga asoslanadi. Oxirgi yillarda O‘zbekistonda millatlararo munosabatlarda qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Buni quyidagi fikrlar ham tasdiqlaydi.



Birinchidan, millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada rivojlantirish sohasida davlat organlari va tashkilotlar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro hamkorligi yanada oshgan.

Ikkinchidan, jamiyatda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan mojaroli vaziyatlar va ixtiloflarning barvaqt oldini olish va ularni profilaktika qilish faoliyatini tashkil etish asosi sifatida joylarda millatlararo munosabatlar holatini monitoring qilish tizmi va mexanizmlari yo'lga qo'yilgan.

Uchinchidan, millatlararo muomala madaniyatini tarbiyalash, O'zbekiston xalqining tarixi va an'alarini o'rganish bo'yicha ta'lim, axborot va madaniy-ma'rifiy chora- tadbirlar kompleksi ishlab chiqilgan.

To'rtinchidan, millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada rivojlantirish sohasida davlat organlari mutaxassislarini, shuningdek, boshqa tashkilotlar xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish borasida samarali mexanizmlar yaratilgan.

Mamlakatimiz hududida yashab kelayotgan turli millat vakillari uchun axborotni o'z ona tilida olish imkoniyati taqdim etilgan, bu borada tele va radio eshittirishlar, gazeta va jurnallar faoliyati yo'lga qo'yilgani yurtimizdagi bag'rikenglik tamoyillarining yorqin namunasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Sh.M.Mirziyoyev "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofliqini asrash - davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqi// Xalq so'zi. 2017-yil,16-iyun.
- 2.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi "O'zbekiston" Toshkent-2023, 6-bet
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi "O'zbekiston" Toshkent-2023, 7-bet
4. Bekmurodov.M. O'zbek mentaliteti: jamoaviylik va individuallik nisbati. "Hurriyat" gazetasi 2002-yil,17-aprel
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi "O'zbekiston," Toshkent-2023
6. [https:// library.tdau.uz](https://library.tdau.uz)
7. [https:// lex.uz](https://lex.uz)



8. Rashidovna, XM (2022). Yangi O'zbekiston dunyo nigohida: faol tashqi siyosat va ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlik borasidagi yutuqlar. *Integratsiyalashgan ta'lim bo'yicha xalqaro jurnal* , 5 (6), 423-427.
9. HAKIMOVA, M. R. MAMLAKAT VA FRONT EHTIYOJLARIGA QARATILGAN QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDA XOTIN-QIZLARNING FRONTORTI JASORATLARI.